

MUQIMIY ASARLARINING TIL XUSUSIYATI**Juraboyeva Maxliyo A'zamjon qizi****Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi****Muratova Nafisa Baxtiyarovna****Ilmiy rahbar: O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7944537>**

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridagi ijodkorlar, xususan, Muqimiy va Furqat asarlari tilining hozirgi o'zbek adabiy tiliga solishtirma tahlili to'g'risida. Maqolada Muqimiy va Furqatning eski o'zbek adabiy tilidan va rus tilidan kirib kelgan so'zlardan qanday foydalangani haqida ham bilib olasiz.

Tayanch so'zlar: so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, folklor uslubi, fonetik hodisalar, hozirgi o'zbek adabiy tili, eski o'zbek adabiy tili, ruscha so'zlar, rus tili leksikasi unsurlari.

XIX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy va siyosiy voqealarga boy bo'lib o'zbek xalqining tarixida, o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Masalan, o'sha davrda ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, texnikaviy, kasb-hunar va boshqa sohalarga oid atamalar, turmushga zarur bo'lgan jihozlar, ust-bosh kiyimlarining nomi o'zbek tiliga qabul qilindi. Demokrat shoirlar uslubida ham yangiliklar vujudga keldi. Ilg'or ma'rifatparvarlar adabiy tilni yangi grammatik shakllar va rus tilining leksik unsurlari bilan boyitdilar. Jumladan, o'zbek demokratik adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mashhur shoirlardan biri Muhammad Aminxo'ja Muqimiy o'zbek adabiy tilini boyitishda ham faxrli o'rinlarni egallaydi.

Ma'lumki, o'zbek adabiy tili ko'p asrlik an'anaga ega bo'lib, u Alisher Navoiy tomonidan shakllantirilgan va rivojlantirilgan. Biroq zamonlar o'tishi bilan Navoiy tilidagi ayrim shakllar o'zgarib, eskira boshladi. Muqimiy tili Alisher Navoiy tilining – eski o'zbek adabiy tilining davomi hisoblansa-da, undan ko'p jihatdan farq qiladi. Chunki Muqimiy asarlari tilida so'zlashuv nutqiga xos xususiyatlar, mumtoz adabiyotga xos badiiy uslub va grammatik shakllar hamda rus tiliga xos leksik unsurlar uchraydi.

Muqimiyning o'zbek adabiy tiliga qo'shgan hissasi uning xalqchilligida namoyon bo'ladi. U xalqqa tushunarli tilda yozishni o'z uslubining ajralmas qismi deb biladi va oldingi asrlardagi ijodkorlardan birmuncha ildamlab ketdi. Muqimiy asarlari tili xalq va folklor tili hisobiga boyidi va rivojlandi. Masalan, uning "Tanobchilar", "To'y", "Moskovchi boy ta'rifida" kabi asarlari folklor uslubi bilan boshlanadi. Bundan tashqari u xalq tiliga xos bo'lgan erkalash, kichraytirish qo'shimchalaridan ham foydalangan. Masalan:

Zulf-u kokilchalari yuzginasiga tushgan,

Anga o'xsharki, tutar oyginani holigina.

Muqimiy asarlarini ko'zdan kechirarkanmiz ba'zi hollarda fonetik hodisalar (matateza, anakopa) mavjudligini uchratamiz. Bu ham so'zlashuv uslubiga xosdir.

Muqimiyning hajviy she'rlarida, she'riy va nasriy yo'l bilan bitilgan maktublarida rus tilidan kirib kelgan so'zlar uchraydi. Ma'lumki, ruscha so'zlar og'zaki tarzda kirib kelgan. Chunki o'sha davrda chet so'zlar uchun orfografik qonunlar belgilanmagan edi. Shunga muvofiq Muqimiy asarlarida quyidagicha so'zlar uchraydi:

O'rus (рус), kantur (контора), zovut (завод), kupes (купец), uyez (уезд), poliska (полиция), kalaska (коляска), pritup (пристав), ka la ska (коляска), pritup (пристав), moshin

(машина), do'xtur (доктор), bulus (волесть), ishtirop (штраф), zakun (закон), zakolat (заклад) va boshqalar.

Muqimiy bu so'zlarni ba'zi o'rinlarda ma'nosini toraytirib, ba'zi o'rinlarda esa kengaytirib qo'llagan. Bundan tashqari u asarlarida ma'lum uslubiy maqsad taqozosi bilan xususiy til yaratishda ruscha so'zlardan foydalangan. Masalan:

Topib mardikorini – “Сейчас yuring,
Пожалуйста,– der erdi, – emdi turing”.

Xulosa qilib aytganda Muqimiy o'z g'oyalari, yuksak orzu-istaklarini badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan va xalqqa tushunarli bo'lishi uchun so'zlashuv uslubi hamda rus tili leksik unsurlaridan foydalangan. U rus tilidagi so'zlarni birinchi bo'lib o'zbek adabiy tiliga olib kirgan va uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan.

References:

1. U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev “O'zbek adabiy tili tarixi” darslik. Toshkent: “O'qituvchi”, 1995.
2. uz.m.wikipedia.org sayti.
3. www.ziyouz.com internet kutubxonasi
4. A,Shomahsudov materiallari
5. Muqimiy “Moskovchi boy ta'rifida”
6. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.abuzalova “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darslik. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010